1.Arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

A	b
$y = \frac{\text{Arc cos } x + \text{Arctg}(x+b) - e^{-at^2}}{ 4^x - \sqrt{(ax-2)(bx-3)} }$	$t = 3\sqrt{\frac{abx}{5\sqrt{b^2-4ac}}} - \sqrt{b^2-4ac}$

2.Bir biriga bog'liq arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$d = \sqrt[3]{ a^2 - \text{Cos}^2 b }, a = \text{Tg} \frac{x}{m} - 3^b, c = e^{x+b^2} - \ln b^3 , x = 3,22, b = 5,3, m \in R$
--

3.Arifmetik ifodani Excel mantiqiy funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$S = \min(6x^2 - 3; \sqrt{ x^3 + 4x - 7^x }); x = a^2 \text{tg} b - 3ab^2; a = \sqrt{ y - k^2 } + 5^y;$ $b = 3y^2 + \text{tgy}; y = 5,26; k \in R$

4. Yig'indi va ko'paytmalarni Excelda hisoblash

$\sum_{R=1}^{19} \frac{R^2 + 14}{\sqrt{3^{-R} + R^3}};$	$\prod_{n=1}^{14} \frac{n+b}{n+2};$	$\sum_{i=1}^6 \sum_{m=1}^{14} \lg \frac{\sqrt[3]{m^2 + e^{m-i}}}{i^2 + 2^{i-m}}$
---	-------------------------------------	--

5. Tenglamalar tizimini echish

$$\begin{cases} 2x_1 + 3x_2 - 2x_3 = 7, \\ 2x_1 - x_2 + x_3 = 3, \\ x_1 + 2x_2 + 3x_3 = -2; \end{cases}$$

6. Excelda jadval hisoblashlar, gistogrammalar va grafiklar qurish

6.1.Fabrikada 4 ta ishchiga donabay ish haq'i to'lanadi. 2chi ishchi xar oyda 115ta, qolganlari 125 ta tufli tikadi. Xar bir tufli uchun 550 so'mdan haq to'lansa va hammasidan 5% soliq ushlansa, ularning bir oyda qo'lga oladigan ish haqini xisoblash jadvalini tuzing.

6.2. Funktsiya jadval qiymatlarini hisoblab grafigini quring

$f(x)$	a	b	n
$1/(x^2-x+1)$	-1	3	25

Variant 15

1.Arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

A	b
$y = \frac{a^3\sqrt{x} + b^3\sqrt{x-1} - e^{-t(ax+b)}}{\text{Arctg}x + \text{Cos}^2 x^a}$	$z = \left(\frac{ax - b^2 Tgx^2}{c^2 x^2 Lnx} \right)^{\frac{2x-b}{xe^x}}$

2.Bir biriga bog'liq arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$a = \text{Cos}x + \text{Cos}y ^{1+2y^2}, b = 1 + z + \frac{z^2}{2} + \frac{z^3}{3}, z = 0,4, y = -0,87, x \in R$
--

3.Arifmetik ifodani Excel mantiqiy funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$F = \begin{cases} f_1; x < A \\ f_2; A \leq x < B; \\ f_3; x \geq B \end{cases} \quad f_1 = \frac{x-B}{4+2x^2}; \quad f_2 = x^2 - (A-B)x + AB \quad A=-2; B=1,5; x \in R$
--

4. Yig'indi va ko'paytmalarni Excelda hisoblash

$\prod_{i=1}^{14} \frac{ i-15 + i^3}{\ln i + 7i};$	$\sum_{R=1}^{10} \frac{(-1)^R * (R+1)}{R^3 + R^2 + 1};$	$\prod_{n=1}^{14} \sum_{m=1}^{16} (-1) \frac{m \log_n(m+5) + 1,5}{2^{m-9} + (n+3)^{-m} + nm}$
---	---	---

5. Tenglamalar tizimini echish

$$\begin{cases} x_1 + x_2 - 2x_3 = 5, \\ 2x_1 - 3x_2 + x_3 = 1, \\ x_1 + 2x_2 + 3x_3 = 2; \end{cases}$$

6. Excelda jadval hisoblashlar, gistogrammalar va grafiklar qurish

6.1.Korxona 5 xil maxsulot ishlab chiqaradi. Xar bir maxsulotni ishlab chiqarish uchun mos ravishda 555, 650, 700, 455, 600 so'm mablag' ketadi. Sotishda 1 va 4 chi maxsulotning xar biridan 100 so'mdan, qolgan maxsulotlardan 150 so'mdan sof foyda qoladi. Korxona bir kunda 2 va 3 maxsulotdan 10 ta, qolgalaridan 7 tadan ishlab chiqarsa,

xar bir maxsulotdan keladigan va umumiy foydani xisoblash jadvali va gistogrammasini tuzing.

6.2. Funktsiya jadval qiymatlarini hisoblab grafigini quring

$f(x)$	a	b	n
$(x-1)/(x^3+1)$	-1	4	30

Variant 16

1.Arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

A	b
$y = \frac{(\arctg^2(x^3) + 1,5\sec^3\sqrt{x})^2}{Tg(1,2x) + Lg^2(1,2x^3)}$	$t = 5x^\pi - e^{t-\cos^3x} - \sqrt{\left \frac{\pi x^3}{1-x^2}\right }$

2.Bir biriga bog'liq arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$a = \frac{x^{y+1} + e^{y-1}}{x + y - \operatorname{Ctg} z }, b = y + \frac{3 y-x ^2 + 2 y-x ^3}{6}, x = 2,44, y, z \in R$

3.Arifmetik ifodani Excel mantiqiy funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$S = \min\left(6x^2 - 3; \sqrt{ x^3 + 4x - 7^x }\right); x = a^2 \operatorname{tg} b - 3ab^2; a = \sqrt{ y - k^2 + 5^y};$ $b = 3y^2 + \operatorname{tgy}; y = 5,26; k \in R$
--

4. Yig'indi va ko'paytmalarni Excelda hisoblash

$\prod_{i=1}^9 \frac{i^2}{\sqrt{i^3 + e^{-i}}};$	$\sum_{R=1}^{10} \frac{R+I}{R^5 + 5R + 1,2};$	$\sum_{m=1}^9 \prod_{n=1}^7 \sqrt{\frac{m^3 - n^2 + 3,4}{m^{-n} + m^{-m} + 12}}$
--	---	--

5. Tenglamalar tizimini echish

$$\begin{cases} 2x_1 - x_2 = -1, \\ 2x_1 + x_2 - 2x_3 = -1, \\ x_1 - 2x_2 + 3x_3 = 2; \end{cases}$$

6. Excelda jadval hisoblashlar, gistogrammalar va grafiklar qurish

6.1. Zavod 6 xil tovar ishlab chiqaradi. Har bir tovar tannarxi a_i va miqdori c_i bo'lsa, xar bir tovardan keladigan foydani hisoblash jadvalini va gistogrammasini tuzing.

6.2. Funktsiya jadval qiymatlarini hisoblab grafigini quring

$f(x)$	a	b	n
$2 - \text{Arctg} x$	0	4π	25

Variant 17

1. Arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

A	b
$y = \frac{\sqrt{x^2 + a^2} \arctg \frac{x}{a} - \frac{\log b}{\lg a - \log_b a}}{\lg a - \log_b a}$	$Z = \frac{10^8 - e^{4 \cos x}}{\ln(x + z)} + e^{x+1}$

2. Bir biriga bog'liq arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$y = \frac{ a-b }{ab^3}, a = \frac{z}{x^2} + \sqrt{x+1}, b = x(1 + \frac{3-x}{e^{ x-z }-7}); x = -0,67; z \in R$
--

3. Arifmetik ifodani Excel mantiqiy funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$F = \begin{cases} f_1; a = x \\ f_2; a > x; \\ f_3; a < x \end{cases}$	$f_1 = \max(a^2; x-3); f_2 = 3x^2 + 4tg^3 x; f_3 = \sqrt{ 2x-3 \lg 3x }$ $a = y + 5y^3; y = 3,17; x \in R$
---	---

4. Yig'indi va ko'paytmalarni Excelda hisoblash

$\prod_{R=1}^{17} \frac{R+17}{2R^2+9};$	$\sum_{R=1}^{13} (-1) \frac{R^R \sqrt{R+1} + R^2}{2R^2 + 4R + 11};$	$\sum_{m=1}^{17} \prod_{n=1}^{10} \sqrt[m^n + m^m + 12]{m^3 - n^2 + 1,7}$
---	---	---

5. Tenglamalar tizimini echish

$$\begin{cases} 2x_1 - 3x_2 = -3, \\ x_1 + x_2 - 2x_3 = -3, \\ x_1 - 2x_2 + 3x_3 = 1; \end{cases}$$

6. Excelda jadval hisoblashlar, gistogrammalar va grafiklar qurish

6.1. Kichik bir fabrikada 8-ta ishchi ishlaydi va ular 2 xil mahsulot ishlab chiqaradi. i-chi ishchi 1-chi mahsulotdan ishlab chiqargan hajmi $a_{i1}(20, 25, 30, 45.5, 14, 18, 23, 30)$, 2-chi mahsulotdan $a_{i2}(4, 5.2, 6, 8, 6, 7.2, 19, 12)$ bo'lsa, har bir ishchining ikki mahsulotdan tayyorlagani o'rtachalarini hisoblash jadvalini va gistogrammasini tuzing.

6.2. Funktsiya jadval qiymatlarini hisoblab grafigini quring

$f(x)$	a	b	n
2-ArcCtgx	0	3π	25

Variant 18

1. Arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

A	b
$Y = \sqrt{x^2 + a^2} \arctg \frac{x}{a} - \frac{\lg b}{\lg x}$	$Z = \frac{\lg(e^{mx} \sqrt{a+b}) - x^{-0.0003}}{(1 - \lg(x^{2+e^{-x}}))^{0.003}}$

2. Bir biriga bog'liq arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$$y = \sqrt[3]{|5a^2 - 3b^2|}, a = \lg 7z + 1, b = 5^4 \cos(xz) - 7 \sin(x+z)^2, x = 3; z \in R$$

3. Arifmetik ifodani Excel mantiqiy funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$$B = \sqrt{x^2 y - \arccos 3x}; x = \min(ay; 8); a = 6y^2 \sin^3 y - 4y^2 \cos^5 3y$$

$$y = z^2 - 3z + 4k^{-2}; z = 3,45; k \in R$$

4. Yig'indi va ko'paytmalarni Excelda hisoblash

$\sum_{n=1}^{10} \frac{18}{5-17n+n^3};$	$\prod_{m=-12}^0 \frac{m^2 \sqrt{ m } + 1,8}{m^2 + 4m + (-1)^m};$	$\sum_{i=1}^{17} \prod_{R=1}^{10} \frac{\sqrt{e^{i+R}} (i+R)^{i-R}}{ 4i^3 - R^4 }$
---	---	--

5. Tenglamalar tizimini echish

$$\begin{cases} 2x_1 - x_2 = -1, \\ x_1 + 2x_2 - x_3 = 1, \\ x_1 - x_2 + 3x_3 = 2; \end{cases}$$

6. Excelda jadval hisoblashlar, gistogrammalar va grafiklar qurish

6.1. Samarkand-Toshkent reysi buyicha xar kuni 5ta avtobus qatnaydi. 1 va 5 chi reyslarga o'rtacha 40 ta chipta sotiladi. Qolgan uchtaga 32tadan sotiladi. Xar bir chipta narxi 1200sum bo'lsa va xar bir mashinaga sarflanadigan yoqilg'i 10500sum bo'lsa bir kunda xar bir avtobusdan keladigan va avtostantsiya oladigan umumiy foydani xisoblash jadvalini tuzing.

6.2. Funktsiya jadval qiymatlarini hisoblab grafigini quring

$f(x)$	a	b	n
$1 - \text{ArcSin}x$	0	3π	25

Variant 19

1. Arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

A	b
$y = \frac{r \text{Ln} v + \sqrt{v^2 - r^2} - r^{-0,0004}}{\sqrt{x + \sqrt{9 - x^2}} + v^{r+1}}$	$z = \frac{e^x \text{Cos} \sqrt{x}}{x - e^{3 \sin 3x }} + e^{\sqrt{x}}$

2. Bir biriga bog'liq arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$y = \sqrt[4]{ae^b - be^a}, a = x + z^3 - \sqrt{ z }, b = 0,05 \arctg(z + 3,3x), x = 30,7; z \in R$

3. Arifmetik ifodani Excel mantiqiy funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$D = \sqrt{ x^2 \sin y^3 - y^5 \cos(x-3)^2 }; \quad x = 5y + \arcsin \frac{k}{b}; \quad y = \begin{cases} 3^k; k=3 \\ 6^k; k \neq 3 \end{cases} \quad b=0,5; \quad k \in R;$
--

4. Yig'indi va ko'paytmalarni Excelda hisoblash

$\sum_{n=1}^9 \frac{19n}{3+n+n^2};$	$\sum_{t=3}^9 \frac{tg(t+3)}{t^3 + 2t + e^{t-1}};$	$\prod_{i=-4}^0 \prod_{m=2}^{19} \frac{(\sqrt[i]{i} + m)}{(i+m)}$
-------------------------------------	--	---

5. Tenglamalar tizimini echish

$$\begin{cases} 2x_1 - x_2 + 2x_3 = -1, \\ x_1 + 2x_2 - x_3 = 3, \\ x_1 - x_2 + 3x_3 = 2; \end{cases}$$

6. Excelda jadval hisoblashlar, gistogrammalar va grafiklar qurish

6.1. Samarkand-Toshkent reysi buyicha xar kuni 5ta avtobus katnaydi. 1 va 5 chi reyslarga urtacha 40 ta chipta sotiladi. Qolgan uchtaga 32tadan sotiladi. Xar bir chipta narxi 1200sum bulsa va xar bir mashinaga sarflanadigan yoqilg'i 10500sum bo'lsa bir kunda xar bir avtobusdan keladigan va avtostantsiya oladigan umumiy foydani xisoblash jadvalini tuzing.

6.2. Funktsiya jadval qiymatlarini hisoblab grafigini quring

$f(x)$	a	b	n
1-ArcSecx	0	3π	25

Variant 20

1.Arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

A	b
$y = \frac{e^{\sin 3x} + \log_a(\arctg x) + tg^2 x}{2 \log_2(1+x)}$	$z = e^{-\arctg(\frac{x}{a})} + (\frac{x}{a} - \ln(be^x))$

2.Bir biriga bog'liq arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$y = \arccctg \frac{a}{b} + \arctg \frac{b}{a}, a = z + \sqrt[3]{x/3 + z}; b = x^3 - e^{x+z}, x = -5,83; z \in R$

3.Arifmetik ifodani Excel mantiqiy funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$E = \min(4^{y-3}; \log_4 y+4); y = \sqrt{ 3a^x - 4x^a \cos^2 3x }; a = 5x^2 - 7x + 3;$ $x = b - 3b^{-4c}; b = 2,35; c \in R$
--

4. Yig'indi va ko'paytmalarni Excelda hisoblash

$\prod_{n=1}^{20} (-1)^n \frac{1+n^2}{1+n^3};$	$\sum_{m=10}^6 \frac{m}{\sqrt[4]{m^2 + e^{i+13}}};$	$\prod_{n=1}^{11} \prod_{R=2}^{16} \frac{n^3 - R^2 + 20}{(n-R + n)^{-R}}$
--	---	---

5. Tenglamalar tizimini echish

$$\begin{cases} 2x_1 - x_2 + 2x_3 = -1, \\ x_1 + 2x_2 - x_3 = 3, \\ x_1 - x_2 + 3x_3 = 2; \end{cases}$$

6. Excelda jadval hisoblashlar, gistogrammalar va grafiklar qurish

6.1. Korxona 5 xil maxsulot ishlab chiqaradi. Xar bir maxsulotni ishlab chiqarish uchun mos ravishda 555, 650, 700, 455, 600 sum mablag' ketadi. Sotishda 1 va 4 chi maxsulotning xar biridan 100 so'mdan, qolgan maxsulotlardan 150 so'mdan sof foyda qoladi. Korxona bir kunda 2 va 3 maxsulotdan 10 ta, qolgalaridan 7 tadan ishlab chiqarsa, xar bir maxsulotdan keladigan va umumiy foydani xisoblash jadvali va gistogrammasini tuzing.

6.2. Funktsiya jadval qiymatlarini hisoblab grafigini quring

f(x)	a	b	n
ArcCosx	0	3π	25

Variant 21

1.Arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

A	b
$y = \arctg x^3 + \lg x - a - e^{\sqrt{ax}} + 3^{-x^2}$	$z = \sqrt[5]{7,003\sqrt{3,1 + (e^2 - e^4)} + \arctg(-\frac{3}{4})}$

2.Bir biriga bog'liq arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$y = \frac{ab}{a-b}, a = \frac{z}{x^2} + \sqrt{x+1}, b = x(1 + \frac{x}{e^{x-z} - \lg 7}), x = -0,67; z \in R$
--

3.Arifmetik ifodani Excel mantiqiy funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$F = \max\{\sin^2 3,17 + 4^x; \min(x^2; 3)\}; x = ab^2 + 4a \cos b^3; a = \sqrt{y^4 + 4b^2} + 2y^b;$ $y = 4,16; b \in R$

4. Yig'indi va ko'paytmalarni Excelda hisoblash

$\prod_{n=1}^{15} (-1)^n \frac{n+21}{9+5n^3};$	$\sum_{R=1}^{12} \frac{2^{-R} + 2^R + 21}{R^2 + e^{2-13}};$	$\prod_{i=1}^{16} \sum_{R=1}^6 \frac{\sin(i+R)}{(i+R)^{i-R} - 21};$
--	---	---

5. Tenglamalar tizimini echish

$$\begin{cases} x_1 - x_2 + 3x_3 = 1, \\ 3x_1 + 2x_2 - x_3 = 2, \\ x_1 - x_2 + 3x_3 = 2; \end{cases}$$

6. Excelda jadval hisoblashlar, gistogrammalar va grafiklar qurish

6.1. Kichik bir fabrikada 8-ta ishchi ishlaydi va ular 2 xil mahsulot ishlab chiqaradi. i-chi ishchi 1-chi mahsulotdan ishlab chiqargan hajmi $a_{i1}(20,25,30,45.5,14,18,23,30)$, 2-chi mahsulotdan $a_{i2} (4,5.2,6,8,6,7.2,19,12)$ bo'lsa, har bir ishchining ikki mahsulotdan tayyorlagani o'rtachalarini hisoblash jadvalini va gistogrammasini tuzing

6.2. Funktsiya jadval qiymatlarini hisoblab grafigini quring

$f(x)$	a	b	n
$\text{Ctg}(x+4)$	0	2π	25

Variant 22

1.Arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

A	b
$y = \frac{e^{\sin 3x} + \log_a(\arctg x) + \text{tg}^2 x}{2 \log_2(1+x)}$	$z = e^{-\arctg(\frac{x}{a})} + (\frac{x}{a} - \ln(be^x))$

2.Bir biriga bog'liq arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$y = \arccctg \frac{a}{b} + \arctg \frac{b}{a}, a = z + \sqrt[3]{x^3 + z}; b = x^3 - e^{x+z}, x = -5,83; z \in R$

3.Arifmetik ifodani Excel mantiqiy funktsiyalaridan foydalanib hisoblash

$E = \min(4^{y-3}; \log_4 y+4); y = \sqrt{ 3a^x - 4x^a \cos^2 3x }; a = 5x^2 - 7x + 3;$ $x = b - 3b^{-4c}; b = 2,35; c \in R$
--

4. Yig'indi va ko'paytmalarni Excelda hisoblash

$\prod_{n=1}^{20} (-1)^n \frac{1+n^2}{1+n^3};$	$\sum_{m=10}^6 \frac{m}{\sqrt[4]{m^2 + e^{i+13}}};$	$\prod_{n=1}^{11} \prod_{R=2}^{16} \frac{n^3 - R^2 + 20}{(n-R + n)^{-R}}$
--	---	---

5. Tenglamalar tizimini echish

$$\begin{cases} 2x_1 - x_2 + 2x_3 = -1, \\ x_1 + 2x_2 - x_3 = 3, \\ x_1 - x_2 + 3x_3 = 2; \end{cases}$$

6. Excelda jadval hisoblashlar, gistogrammalar va grafiklar qurish

6.1. Zavod 6 xil tovar ishlab chiqaradi. Har bir tovar tannarxi ai va miqdori ci bo'lsa, xar bir tovardan keladigan foydani xisoblash jadvalini va gistogrammasini tuzing.

6.2. Funktsiya jadval qiymatlarini hisoblab grafigini quring

f(x)	a	b	n
1-ArcSecx	0	3π	25

3.MUSTAQIL BAJARISH UCHUN ARALASH MASALALAR

1.Tikuv fabrikasi bo'limida birinchi tikuvchi bir soatda a=200m., ikkinchisi b=215m., uchinchi c=225m., to'rtinchisi d=250m. ip ishlatadi. Agar ular bir kunda t=7 soat ishlasa hammasi bo'lib qancha ip ishlatadi.

2.Paxta punktida 12 ta paxta uyumi mavjud bo'lib, har bir uyum eni a=10m., bo'yi b=40 m., va balandligi h=6m. 1m. kub paxta 13 kilogrammni tashkil etsa, punktdagi hamma paxta qanchaligini toping.

3.Bir juft 41-razmerli tufli tikish uchun a=0.21m.kvadrat charm, 40-razmer uchun b=0.19m.kv., 39 razmer uchun c=0.17m.kv. charm ketadi. Agar ishchi bir oyda 41-razmerdan 4 ta, 40 razmerdan 6 ta, 39 razmerdan 15 ta tufli tiksa, u uch oyda qancha charm ishlatgan bo'ladi.

4.Qirqilgan gazlama tomonlarining uzunliklari a=3sm., b=4.8sm., c=3.4sm., d=5.2sm bo'lsa, uning yuzasini toping.

5.Ishchi sq36540 so'm oylik maosh oladi. Agar 1so'mdan 4 ming so'mgacha 15%, 4 ming so'mdan 8 ming so'mgacha 25%, 8 ming so'mdan 12 ming so'mgacha 30% va undan yuqorisidan 36% soliq ushlansa, ishchi qo'liga qancha oylik oladi.

6.Uchburchak shaklda kesilgan matoning tamonlari a=2.6sm., b=3.4sm., c=2.4sm. bo'lsa ular burchaklarini graduslarda aniqlang.

7. Tekislikda koordinatalari $x(i)$ va $y(i)$ ($i=1,2,...,n$) bo'lgan n ta nuqta berilgan. Ular ketma-ket biri ikkinchisi, ikkinchisi uchinchisi bilan va hakazo birlashtirilgan. Eng katta uzun kesma va ularni birlashtiruvchi nuqtalar koordinatalari topilsin. Kiritiladigan va chihariladigan ma'lumotlar faylda saqlansin. $N=5$ deb olinsin.

8. $M_1, M_1, ..., M_n$ nuqtalar o'z koordinatalari bilan berilgan. Shu nuqtalardan markazi (x_0, y_0) radiusi R ga teng bo'lgan aylana ichida yotadiganlarini aniqlab, ular faylga yozilsin.

9. Sinfda n ta o'quvchi bor, ular har biri matematikadan a_i ($i=1,2,...,n$) reyting balli olgan. Agar umumiy ball 72 bo'lib, reyting mezoni $0 < a_i < 55\%$ da 2 baho, $55\% < a_i < 71\%$ da 3 baho, $71\% < a_i < 85\%$ da 4 baho va $85\% < a_i < 100\%$ da 5 baho deb olinsa, har bir o'quvchi bahosi aniqlansin. Kiritiladigan va chihariladigan ma'lumotlar faylda jadval ko'rinishda saqlansin.

10. Fabrikada n ta ishchi ishlaydi va m xil mahsulot ishlab chihariladi. i -chi ishchi j -chi mahsulotdan ishlab chihargan hajmi a_{ij} bo'lsa, har bir ishchining qaysi mahsulotdan eng ko'p ishlab chiharishi aniqlansin.

11. Korxonada n ta ishchi ishlaydi. har bir i chi ishchi oylik maoshi a_i . Agar har bir ishchining ish haqidan 1 so'mdan 8 ming so'mgacha 12%, undan yuqorisidan 25% soliq ushlansa, har bir ishchi qo'lga oladigan maoshi b_i va olingan soliq miqdori c_i topilsin va jadval ko'rinishda yozilsin.

12. Zavod n xil tovar ishlab chiharadi. har bir tovar tan narxi a_i va miqdori c_i bo'lsa, uchta eng ko'p foyda olib kelishi mumkin bo'lgan tovarlar aniqlansin.

13. Birdan boshlab 20 ta 7 ga karrali sonlar aniqlanib ularni $A(20)$ massiviga joylashtirilsin va ular ichida 9 ga karralilari topilsin.

14. Birdan o'n minggacha sonlar ichida nechta 7 hamda 9 ga karrali son borligi aniqlansin va ular faylga yozilsin.

15. Viloyatda n ta tuman bo'lib, har bir tumanning shu yil etishtirgan paxta miqdorlari mavjud. Viloyat bo'yicha o'rtacha qanchadan paxta etishtirilgan? Eng ko'p paxtani qaysi tuman etishtirgan.

16. Natural n soni berilgan, shu sonning hamma bo'linuvchilari topilsin va ular faylga yozilsin.

17. Tekislikda n ta nuqta berilgan $M_1(x_1, y_1), M_2(x_2, y_2), ..., M_n(x_n, y_n)$. Koordinata boshi $M(x_0, y_0)$ nuqta bo'lsa, berilgan nuqtalarning koordinata boshigacha bo'lgan masofalari topilsin va eng yaqin masofada turgan nuqta koordinatasi aniqlansin.

18. Bir metr ipning og'irligi 0,03 g. Gazmol to'qishda 1 m. uchun 1000 ta ip ishlatiladi. Eni 1,4 m. uzunligi 5 m. gazmol og'irligi aniqlansin.

19. Tekislikda $M_1, M_2, \dots, M_n$ nuqtalar to'plami o'z koordinatalari bilan berilgan. Shu nuqtalar to'plami ichida 1 va 3 chi chorakda joylashganlar soni va ular koordinatalari chiqarilsin.

20. Tajribali bichuvchi bir juft poyabzalni 1 soatda, shogirdi 2 soatda bichadi. Agar ular ishni bir vaqtda boshlasalar, qancha vaqtdan so'ng yana birga boshlaydilar.

4. MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN INFORMATIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARI

1. "Informatika" va uning ma'nosi. "Informatika" fani XX asrining 50 yillari boshlarida paydo bo'ldi. Informatsiya so'zi lotincha "information" so'zidan olingan bo'lib, "tushuntirish", "tasvirlash" degan ma'noni anglatadi.

Umuman olganda biz uni axborot deb qabul qilamiz.

2. Informatikaning asosiy vazifalari va ob'ekti. Informatikaning bosh vazifasi axborotni yangilash, uslub va vositalarni ishlab chiqish va axborotni qayta ishlashning yangi texnologiyalarini yaratishdir. Informatikaning asosiy ob'ekti bu zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish va kompyuterlashtirishdir. Informatika axborot va uni qaytaishlovchi texnikaviy, hamda dasturiy vositalarga asoslanadi. Informatika fani o'rganadigan uchta asosiy tushuncha bor ular: axborot; kompyuter, algoritmi va dastur.

3. Axborot tushunchasi. Informatika sohasining asosiy resursi -bu axborotdir. Axborot atrof-muhit ob'ektlari va hodisalari, ularning o'lchamlari, xossalari va holatlari to'g'risidagi ma'lumotlardir. Agar ma'lumotlar inson foydalanadigan ma'lumotlar bo'lsa, u axborotga aylanadi.

4. Axborot sifati. Axborot 3 ta muhim sifatga ega: to'liq; qimmatli; ishonchli bo'lishi lozim, aks holda uni qayta ishlashga zarurat tug'ilmaydi.

5. Axborotning o'lchov birliklari. Bit, Bayt ($1\text{Bayt}=8\text{Bit}$), Kilobayt ($1\text{Kb}=1024\text{Bayt}$), Megobayt ($1\text{Mb}=1024\text{Kb}$), Gigobayt ($1\text{Gb}=1024\text{Mb}$), Terobayt ($1\text{Tb}=1024\text{Gb}$).

6.**Sanoq tizimlari.** 10 lik sanoq tizimi: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9;

sakkizlik sanoq tizimi: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7;

o'n oltilik sanoq tizimi: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, A, V, S, D, E, F mavjud.

Sakkizlik sanoq tizimidagi sonni ikkilik sanoq tizimida ifodalash triada deb ataladi:

8 lik: 0 1 2 3 4 5 6 7

2 lik: 000 001 010 011 100 101 110 111

Ikkilik sanoq tizimi kompyuterning arifmetik asosi deyiladi, chunki u hamma mantiqiy va arifmetik amallarni shu sistemada bajaradi.

7.**Kompyuter ta'minoti** -ikkita murakkab, o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qiluvchilar: 1)Texnik ta'minot (apparatura vositasi); 2)Dasturiy ta'minotni o'z ichiga oladi.

8.**Kompyuterning texnik ta'minoti.** Kompyuterning texnik ta'minoti quyidagilar: Sistemalar bloki (protssessor, vinchester, disk yurituvchilar), monitor, klaviatura, sichqoncha, printer.

9.**Protssessor.** Tezkor xotira ishlarini, amaliy va mantiqiyamallarni bajaruvchi elektron qurulma.

10.**Vinchester.** Juda katta tezlikda yozuv va qattiq magnitli disk, ya'ni kompyuter asosiy xotirasi. U o'zida axborotlarni faylda saqlaydi.

11.**Monitor** (displey). Matn va tasvir ko'rinishidagi axborotlarni ekranga chiharish qurilmasi.

12.**Klaviatura.** Kompyuterga buyruq berih va axborotlarni kiritish qurilmasi.

13.**Disk yurituvchi.** Egiluvchan va kompakt diskklaridagi ma'lumotlarni o'qish va unga yozish ishlarini bajaradi.

14.**Printer.** Matn va tasvir ko'rinishdagi axborotlarni bosmaga chiharish qurilmasi. Uning matritsali, lazirli va struenli turlari mavjud.

15.**Sichqoncha.** Ma'lumot kiritilishini engillashtiruvchi manipulyator.

16.**Modem.** Telefon tarmog'i orqali boshqa kompyuter bilan ma'lumot almashish imkoniyatini beradi. Vazifasi raqamli signalni analog signaliga almashtiradi va aksincha.

17.**Skaner.** Qog'ozdagi ma'lumotni kompyuterga tasviriy ravishda kiritadi.

18.**Kompakt disk.** Axborot saqlash uchun disk. Ularning CD-R, CD-RW, DVD-R va DVD-RW xillari mavjud. Sig'imi 700 Mbdan 4.7 Gbgacha.

19.**Dasturiy ta'minot.** DT deb, dasturlar to'plami va unga qaraydigan hujjatlarga aytilib, ular har xil masalalarni kompyuterda echishda ishlatiladi. Dastur ta'minot har qanday kompyuterning kerakli tashkiliy qismi hisoblanadi. Kompyuterlarning dastur ta'minoti ikkiga bo'linadi: 1.Sistemali dasturiy ta'minot. 2.Amaliy dasturiy ta'minot.

20.**Sistemali dasturiy ta'minot.** SDT dasturlar to'plami bo'lib, ular kompyuter funktsiyalarini boshqarib, effektiv ravishda ishlashini ta'minlaydi. Sistemali dastur ta'minotning asosini operatsion sistema (OS) tashkil qiladi.

21.**Amaliy dasturiy ta'minot.** ADT aniq bir masalalarni echish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular umumfoydalanuvchi va sohaga yo'naltirilgan dasturlar paketiga ajratiladi.

Misol uchun umumfoydalanuvchilarga har xil matn muharrirlari dasturlarini keltirish mumkin. Sohaga yo'naltirilgan dastur paketlariga esa buxgalteriya hisobi, iqtisodiy masalalarni echish, raketalarni boshharish va hakazo.

22.Operatsion sistema. OS kompleks dastur bo'lib, uning asosiy vazifalari quyidagilar: 1.Kompyuter apparaturalarini boshharadi. 2.Kompyuter resurslarin effektiv ishlatadi va foydalanuvchi bilan muloqotni o'rnatadi. 3.Amaliy dasturlarning bajarilishini muntazam tekshirib boradi.

23.Foydalanuvchi interfeysi. MS DOSning buyruqlarini EXMga kiritish ko'p mehnat va vaqt talab qilishi sababli DOS buyruqlaridan oson va samarali foydalanishning interfeyslari yaratilgan. Ularga misol tariqasida Norton Commander, Microsoft Windows, RS Tools Delixe va boshqalarni keltirish mumkin.

24.Grafik interfeysi -turli ko'rinishdagi grafik ob'ektlar bilan ishlash uslublari majmui. Grafik interfeyslarning afzalliklari shundan iboratki, bunda har bir ob'ekt tegishli belgiga ega ekanligi, uning ko'rgazmaliligi va muomala uchun soddaligidir.

25.Fayllar -magnit disklardagi biron nom berilgan ma'lumotlar to'plamidir. Fayl nomi ikki qismdan iborat: asosiy va kengaytma nom. Kengaytma nom uch harfdan tashkil topib, faylning qaysi turga mansub ekanini bildiradi.

26.Katolog. Katolog -fayl nomlari, ularning xajmi, yozilish vaqti haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi diskdagi maxsus joy.

27.Disketalar. Disketalar 3,5 dyumli, 5,25 dyumli egiluvchan va kompakt disklardir. 3,5d. disketaga 1.44Mb va kompakt disklariga 700 Mb axborotlarni sig'dirish mumkin. Ular disk yurituvchilari mos ravishda quyidagi mantiqiynomlar bilan belgilanadi: egiluvchan disklar A: va B:, qattiq disk C: va kompakt disk D:.

28.MS DOS operatsion tizimi. MS DOS tizimi Microsoft firmasi tomonidan 1981 yil ishlab chiqildi. MS DOS OS tizimi quyidagi qismlardan tashkil topgan. BIOS (Vasic Input -Output System) kompyuterning doimiy xotirasida joylashgan. Uning vazifasi kiritish -chiharish bilan bog'liqxizmatlarni bajarishdan iborat. OS yuklovchisini

chaqiruvchi dasturni ishga tushiradi va MS DOSning qolgan 2 modulini o'qishdan iborat.

IO.SYS va MS DOS.SYS diskli fayllar. Ularni OS yuklovchi tezkor xotiraga ko'chiradi va kompyuter tezkor xotirasida saqlaydi.

29.MS DOS operatsion tizimi asosiy vazifasi. 1.Kompyuterni ishga tushirish. 2.Kompyuter bilan foydalanuvchi orasida muloqotni o'rnatish. 3.Amaliy dasturlarning narmal ishlashini ta'minlash.

30.MS DOS buyruqlari. MS DOS bir necha buyruqlarga ega: Dir -fayl va katologlar ro'yxatini ekranga chiharish; Md -yangi katolog tashkil etish; Copy con -matnli faylni tashkil etish; Copy -fayllardan nusxa ko'chirish; Del -faylni o'chirish va boshqalar.

31.Tashqi va operativ xotira. Tashqi xotira, odatda magnit disklardan iborat bo'lib, ular ikki turlidir. Birinchi turi-egiluvchan disketalar. Ikkinchi turi kompakt disklar. Operativ

xotira mashina ishlash vaqtida ma'lumotlarni ko'rish imkonini beradi va u mashina o'chganda yo'qolib ketadi.

32.Windows tizimi. Windows Microsoft firmasi mahsuli bo'lib, darchalarda ishlash printsiptiga asoslangan to'laqonli operatsion sistemadir. U foydalanuvchiga bir paytning o'zida bir necha masalani echish, ixtiyoriy tashqi qurilma bilan hamda MS DOS dasturlari bilan ishlash imkonini beradi. Operativ xotirani avtomatik ravishda taqsimlaydi. Avtomatik ravishda resurslarni taqsimlash va boshharish hamda foydalanuvchi bilan kompyuter orasidagi qulay muloqot o'rnatadi, parallel ish rejimini ta'minlaydi. Uning Windows 95, 97, 2000, XP va Melenium kabi versiyalari mavjud.

33.Windows ish stoli. Windows kompyuter ekranida foydalanuvchi uchun ish stolini yaratadi. Ish stolida "moy kompyuter", "moi dokumenti", "setevoe okrujenie" va boshqa maxsus papkalar joylashgan. Windows -oyna ma'nosini anglatadi. U o'zida dastur va ob'ektlar, hujjatlar va muloqot oynalarini ishlatadi.

34.Provodnik dasturi. Bu dastur Windows tarkibiga kiruvchi, fayl va katologlarga yo'l ko'rsatuvchi dasturdir. Uning oynasi ikki paneldan tashkil topgan bo'lib, unda fayl va katologlar ustida operatsiyalarni bajarish juda qulay.

35.Windows standart dasturlari. Windowsning bir necha standart dasturlari mavjud, ular «Standartlar» papkasida joylashgan. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: -multimedia dastur vositalari papkasi; -sistemali dasturlar papkasi; -kalkulyator Cals; -grafik muharriri Paint; -bloknote Note Pad; -telefonlar bilan ishlash uchun dasturlar; -Word Pad matn muharriri va boshqa dasturlar.

36.Piktogramma. Piktogramma uncha katta bo'lmagan rangli rasmlar (znachok, miniatyura) bo'lib, displey ekranida ma'lum bir dastur, biror ob'ekt yoki hujjat faylini tasvirlaydi. Piktogramma o'z nomi va tushuntirish matniga ega.

37.Yarlik. Windows tizimining yangi elementlaridan bo'lib, dasturni va kerakli elementlarni foydalanuvchiga tez chiqarib berishni ta'minlaydi. Yarlik .LBK nomli kengaytmaga ega bo'lgan fayl bo'lib, u dastur bilan ekranni ulaydi.

38.Matn muharriri. Kompyuterda matnlarni tayyorlashda foydalanuvchiga ko'pgina qulayliklarni yaratib beruvchi dasturlarga matn muharrirlari deyiladi. Matn muharrirlari matnlarni kiritish, o'zgartirish, ko'chirish va chop etish kabi bir qancha imkoniyatlarga ega. Ularga Leksikon, WD, Blaknot, Word va boshqalarni misol keltirish mumkin.

39.Word matn muharriri. Word matn muharriri Windows muhitida ishlaydigan matn muharriri bo'lib, oddiy va murakkab strukturali matnli hujjatlarni tashkil qilish va chop etish uchun xizmat qiladi.

40.Elektron jadvallar. Jadval ko'rinishidagi ko'p miqdordagi ma'lumotlarni qaytaishlashda turli hisob operatsiyalarini bajarish sifatini hamda hisoblashlar darajasini oshirish uchun elektron jadvallar, ya'ni jadval protsessori deb ataladigan maxsus dasturlar paketi mavjud.

41.Excel elektron jadval protsessori. Excel Microsoft office tarkibiga kiruvchi dasturlar paketidir. Bu dasturlar paketi jadval ma'lumotlarini qayta ishlash uchun mo'ljallangan. Excel elektron jadvalida hujjatlar yoki fayllar .xls kengaytmasiga ega bo'ladi. Excel elektron jadvalining har bir fayli odatda ish kitobi (Workbook) deb ataladi. har bir ish kitobida bir necha «ish varag'i» mavjud. Elektron jadval satrlari 1 dan 65536 gacha bo'lgan butun sonlar, ustunlar esa A, V, S, ...Z, AA, AV, ... kabi lotin harflari bilan belgilangan. Ustun bilan qator kesishmasi jadval yacheykasi deyiladi. har qanday yacheykaga son, harf, formula yoki matn yozish mumkin.

42.Slayd. Slayd ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda yaratilayotgan namoyish elementlari joylashadi.

43.Prezentatsiya. Prezentatsiya (taqdimot) yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi.

44.Arxivlash. Arxivlash bir yoki bir necha fayllar nusxasini bitta qilib diskga siqib joylashtirishdir. Fayllar arxivlanish natijasida matnli axborot uchun 60-70% joy, bajariluvchi fayllar uchun 20-30% joy tejiladi. Magnit diskini ishdan chiqishi, fayllarning noto'g'ri taqiriri yoki faylni ehtiyotsizlik oqibatida o'chirilishi, yoki kompyuter virusining zarari natijasida fayl axborotlari buziladi. Shu sabab fayllarning arxiv nusxasini olib turish zarur.

45.Arxivatorlar. Arxivlovchi dasturlar bo'lib, fayl nusxasini diskda siqib joylashtiradi, fayllarni arxivdan olish va arxiv mundarajasini ko'rish imkonini beradi. Arxivlovchilar: Arj, Pkzip, Rar va WinRar dasturlari bor.

46.Kompyuter viruslari. Kompyuter viruslari maxsus tayyorlangan uncha katta bo'lmagan dasturdir. Bu dastur boshqa dasturlarni zararlantiradi. Shu yo'sinda virus asta - sekin ko'payib boradi, natijada kompyuterda g'alati o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Masalan, ba'zi dasturlar ishlamay qoladi yoki noto'g'ri ishlaydi, kompyuter tezligi kamayadi, fayl ma'lumotlari o'zgaradi, ma'lumotlar o'chiriladi va xakazo.

47.Viruslarni aniqlash va yo'qotish. Viruslarni aniqlovchi va yo'qotuvchi turli dasturlar mavjud. Ularga misol: Kasper antivirus dasturi; Norton antivirus dasturi; DrWeb va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uolles Vong. Office XR dlya «Chaynikov» Moskva-Sankt-Peterburg - Kiev, 2003
2. A. Kuxarchik RNR: obuchenie na primere, MINSK OOO «NOVOE ZNANIE» 2004
- 3.S. V. Simonovich «Informatika. Bazovo'y kurs», Izdatelstvo «Piter», 2000

MUNDARIJA

1. Mustaqil ish variantlarini bajarish uchun ko'rsatmalar va namunaviy misollar.	3
1.1. Arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash..	3
1.2. Bir biriga bog'liq arifmetik ifodalarni Excel matematik funktsiyalaridan foydalanib hisoblash.....	4
1.3. Arifmetik ifodani Excel mantiqiy funktsiyalaridan foydalanib hisoblash.....	4
1.4. Yig'indi va ko'paytmalarni Excelda hisoblash.....	5
1.5. Tenglamalar tizimini echish.....	7
1.6.1. "Excel" jadval protsessorida hisob jadvallarini qurish.....	9
1.6.2. "Excel" jadval protsessorida grafik qurish texnologiyasi.....	10
1.6.3. "Excel" jadval protsessorida gistogrammalar qurish	11
2. Mustaqil ish variantlari.....	13
3. Mustaqil bajarish uchun aralash masalalar.....	35
4. Mustaqil o'rganish uchun informatikaning asosiy tushunchalari.....	37
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	41